

Viloyat, tuman va shahar hokimliklarining oila va xotin-qizlar masalalari bo'yicha kotibiyatlardagi vakant lavozim bo'yicha o'tkazilayotgan tanlov ishtirokchilari uchun

SAVOLLAR

1. "Yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash markazlari" faoliyati qaysi tashkilotning, qaysi bo'g'ini huzurida tashkil etilgan hamda markazlarda qanday yo'nalishlarda o'qitiladi?
2. "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni kimlarga beriladi?
3. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonunining maxmun-mohiyatini gapirib bering.
4. 2030 yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi haqida xabardormisiz?
5. Genderga oid audit nima? Genderga oid auditning asosiy vazifalarini sanab bering?
6. Jins bo'yicha bevosita kamsitish deganda nimani tushunasiz?
7. Zo'rovanlikni turlarini aytib bering?
8. Ijtimoiy yordam tizimini modernizatsiya qilishga nimalar kiradi?
9. Ijtimoiy himoya turlarini bilasizmi? Gapirib bering.
10. Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalardagi xotin-qizlarni oliy ta'limga qamrovini ko'paytirish maqsadida qanday huquqiy asoslarni bilasiz?
11. Qanday oilalar kam ta'minlangan deb e'tirof etiladi?
12. Nikoh yoshi necha yosh deb belgilangan?
13. Nikoh tuzishga mone'lik qiladigan holatlarni sanab bering.
14. Nikohlanuvchi shaxslar qaysi kasalliklar bo'yicha tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi?
15. Notinch va muammoli oilalarni aniqlash, ularning manzilli ro'yxatlarini tuzish hamda mazkur oilalardagi ma'naviy-axloqiy muhitni sog'lomlashtirish, nizoli holatlarga barham berish maqsadida mahallalarda va Oila va xotin-qizlar qo'mitalari hamda uning quyi tuzilmalari qoshida qanday jamoatchilik tuzilmalari tashkil etilgan?
16. Oila va xotin-qizlar qo'mitasi hamda uning hududiy bo'linmalarining vakolatlari Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi vakolatlarini sanab bering.
17. Oilaviy (maishiy) zo'ravonlik deganda nimani tushunasiz?
18. Oilada nizo keltirib chiqaruvchi ilmiy asoslangan sabablarning ayrimlarini bilasizmi?
19. Oliy ta'lim muassasalari, texnikum va kollejlarda, shu jumladan sirtqi va kechki ta'lim shaklida o'qiyotgan xotin-qizlarning ta'lim kontraktlarini to'lash uchun qancha muddatga foizsiz ta'lim kreditlarini moliyalashtirish belgilangan?
20. Tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish deganda nimani tushunasiz?
21. Tazyiq so'ziga tarif bering?
22. Tazyiq o'tkazgan va zo'ravonlik sodir etgan yoki sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarning zo'ravonlik xulq-atvorini o'zgartirish qaysi normativ xukukiy hujjat bilan tartibga solingan?
23. Ta'qib etish so'ziga tarif bering?

24. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma'rifatli jamiyatni ma'rifatli onalarsiz qurib bo'lmaydi!» degan fikri aynan qaysi harakatni tashkil etish tashabbusi ilgari surilganda aytilgan?
25. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoyaga qaratilgan qanday daftarlar joriy etilgan?
26. O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasi qachon tasdiqlangan va uning mazmun-mohiyatida nima aks etgan?
27. O'zbekistonda oila-nikoh munosabatlari sohasida ilmiy o'rganishlar olib borish, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikni amalga oshirish borasida qaysi ilmiy-tadqiqot instituti faoliyat yuritadi?
28. O'zining samarali mehnati bilan oilaning totuvligi va farovonligi mustahkamlanishiga, joylarda ma'naviy-axloqiy muhitni sog'lomlashtirish va milliy qadriyatlarni keng targ'ib etish borasida ibratli faoliyat olib borayotgan xotin-qizlarga Oila va xotin-qizlar qo'mitasi huzuridagi komissiya tomonidan qanday ko'krak nishon beriladi?
29. Uy-joyga muhtoj og'ir turmush sharoitida yashayotgan xotin-qizlarni uy-joy bilan ta'minlash tartibi qanday? Qanday huquqiy-me'yoriy xujjatlarga asoslaniladi?
30. Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi kaysi normativ xujjat bilan yanada takomillashtirildi?
31. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
32. Xotin-qizlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, xonadon gigiyenasi madaniyatini shakllantirish bo'yicha qanday tibbiy tuzilmalar mavjud va xonadonlarda sog'lom turmush tarziga rioya etilishi bo'yicha qanday platforma yaratilgan?
33. Xususiy tashkilot xodimlariga homiladorlik nafaqasini davlat tomonidan to'lash tartibi qanday?
34. Erta nikohlarni diniy marosimlarini amalga oshirganlik uchun qanday javobgarlik mavjud?
35. Yosh oila tushunchasiga ta'rif bering.
36. Oila va xotin-qizlar qo'mitasining vazifa va funksiyalarini sanab bering.
37. "Ayollar daftari" to'g'risida gapirib bering.
38. Mahalladagi xotin-qizlar faolining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
39. "Ayollar daftari"ga 30 yoshdan oshgan qaysi toifadagi xotin-qizlar kiritiladi?
40. "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarga turur joy ijara kompensatsiyasi qanday talabnomalar asosida to'lab beriladi?
41. "Zulfiya" davlat mukofoti to'g'risida ma'lumot bering.
42. Migratsiyadan qaytgan, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan, og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarning ijtimoiy moslashuviga, ular bilan manzilli ishlash orqali zarur yordamlar olishlariga ko'maklashish borasida qanday amaliy chora-tadbirlar amalga oshiriladi?
43. Keys menejment qo'llagan holda ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni aniqlash hamda ular bilan manzilli ishlash deganda nimani tushunasiz?
44. Reproduktiv salomatlik nima?
45. Xotin-qizlarning kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga ko'maklashish, tadbirkorligini rivojlantirishning amaliy chora-tadbirlarini aytib bering.

46. Iqtidorli xotin-qizlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash tizimi to'g'risida gapirib bering.
47. Oila va gender ilmiy-tadqiqot institutining asosiy vazifalarini sanab bering.
48. «Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari»ning asosiy vazifalarini aytib bering.
49. «Olima ayollar» jamiyatining asosiy vazifalarini aytib bering.
50. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash yuzasidan qanday vazifalar belgilangan?
51. Hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda xotin-qizlarga ko'rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini ta'minlash borasida qanday ishlar amalga oshiriladi?
52. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida ayollar orasidagi ishsizlik darajasini necha baravar kamaytirish nazarda tutilgan?
53. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida qancha ishsiz xotin-qizlarni davlat hisobidan kasb-hunarga o'qitish belgilangan?
54. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'rin olgan xotin-qizlarning teng huquqligiga oid normalarni sharhlab bering.
55. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'rin olgan oila va bolalar huquqlariga oid normalarni aytib bering.
56. «O'zbekiston-2030» strategiyasida onalar va bolalar o'limini qisqartirish, sog'lom bolalikni ta'minlash bo'yicha qanday vazifalar belgilangan?
57. «O'zbekiston-2030» strategiyasida xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta'minlashga oid qanday vazifalar belgilangan?
58. «Ayollar daftari» bilan manzilli ishlashning shaffof mexanizmini yaratish qay tartibda amalga oshiriladi?
59. Notinch va nizoli oilalardagi psixologik muhitni yaxshilash maqsadida qanday amaliy chora-tadbirlar qo'llaniladi?
60. Oilaviy, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarni mustahkamlash deganda nimani tushunasiz?
61. Iqtisodiy zo'ravonlik nima?
62. Ruhiy zo'ravonlik zo'ravonlik nima?
63. Himoya orderi kimlarga beriladi?
64. Nima himoya orderini berish uchun asos hisoblanadi?
65. Himoya orderining amal qilish muddati va tugatish tartibini tushuntirib bering.
66. Oilaviy nizo turlarini aytib bering.
67. Oiladagi inqirozlar va ularning oqibatlari to'g'risida gapirib bering.
68. Ajrimlarning eng ko'p bo'ladigan sabablari bo'yicha fikr bildiring. Ularni oldini olish bo'yicha taklif bering.
69. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash ishlarini

tizimli tashkil etish qay tartibda amalga oshiriladi?

70. Namunali oilalar bilan manzilli ishlar qanday yo'lga qo'yiladi?